



## BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI VA ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI

*Otajonova Azizaxon Maqsat qizi*

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti*

*2-bosqich magistranti*

*+998971493443*

*Ilmiy rahbar: L.S.Ziyodullayeva*

*TDSHU i.f.n., dotsent*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Birlashgan Arab Amirliklarida turizm sohasini rivojlantirish strategiyalari hamda istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida mamlakatning turizm infratuzilmasi, marketing strategiyalari, innovatsion texnologiyalarni joriy etish tajribasi hamda turizmni diversifikatsiya qilish siyosati o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, BAA turizmni iqtisodiy diversifikatsiyaning asosiy yo‘nalishi sifatida rivojlantirib, global turizm markazlaridan biriga aylangan. Tadqiqotda statistik tahlil, taqqoslash, tizimli yondashuv kabi metodlardan foydalanildi. Maqolada "UAE Tourism Strategy 2031" doirasidagi strategik maqsadlar, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari va turizm oqimining yalpi ichki mahsulotga (YaIM) ta'siri ekonometrik modellar yordamida tahlil qilingan. Shuningdek, kelajakda raqamli turizm, tibbiy turizm va barqaror turizm yo‘nalishlari ustuvor ahamiyat kasb etishi asoslab berildi.

**Kalit so‘zlar:** turizm strategiyasi, innovatsion turizm, BAA turizmi, turizm infratuzilmasi, smart tourism, barqaror turizm, turizm marketingi.



## TOURISM DEVELOPMENT STRATEGIES AND PROSPECTIVE DIRECTIONS OF THE TOURISM INDUSTRY IN THE UNITED ARAB EMIRATES

**Abstract.** This article analyzes tourism development strategies and перспективе directions in the United Arab Emirates. The study examines tourism infrastructure, investment policy, innovation implementation and diversification of tourism services. The results show that the UAE has successfully developed tourism as a key sector of economic diversification. The article analyzes the strategic goals within the framework of the "UAE Tourism Strategy 2031", mechanisms for attracting foreign investment, and the impact of tourism flows on gross domestic product (GDP) using econometric models. The research also identifies smart tourism, medical tourism and sustainable tourism as promising development directions.

**Keywords:** tourism development, tourism strategy, UAE tourism, tourism infrastructure, smart tourism, sustainable tourism, tourism marketing.

## СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ В ОБЪЕДИНЕННЫХ АРАБСКИХ ЭМИРАТАХ

**Аннотация.** В данной статье проанализированы стратегии развития туризма в Объединенных Арабских Эмиратах и перспективные направления отрасли. В ходе исследования изучены туристическая инфраструктура страны, инвестиционная политика, внедрение инновационных технологий и диверсификация туристических услуг. Результаты исследования показали, что ОАЭ успешно развивают туризм как ключевой сектор экономики. В статье с помощью эконометрических моделей анализируются стратегические цели в



рамках «Стратегии развития туризма ОАЭ до 2031 года», механизмы привлечения иностранных инвестиций, а также влияние туристических потоков на валовой внутренний продукт (ВВП). Также обосновано, что цифровой туризм, медицинский туризм и устойчивый туризм являются перспективными направлениями развития.

**Ключевые слова:** туризм, стратегия туризма, инновационный туризм, туристическая инфраструктура, цифровой туризм, устойчивый туризм.

## KIRISH

Bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotining eng muhim va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Jahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, turizm global xizmatlar eksportining muhim qismini tashkil etadi va ko'plab davlatlar iqtisodiyotida strategik tarmoq sifatida qaraladi. Birlashgan Arab Amirliklari turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiy diversifikatsiya siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirgan davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakat uzoq yillar davomida neft eksportiga tayanib kelgan bo'lsa-da, hozirgi davrda xizmatlar sektorini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. BAA hukumati tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy strategiyalarda turizm asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Ayniqsa Dubay va Abu-Dabi shaharlari xalqaro turizm markazlariga aylangan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025 yilda BAA turizm sohasi mamlakat yalpi ichki mahsulotining qariyb 13 % qismini tashkil etgan va 257 milliard dirhamdan ortiq daromad keltirgan. Shuningdek, Dubay shahriga 2025 yilda 19 milliondan ortiq turist tashrif buyurgan, bu esa mamlakatning turizm strategiyasi samarali ekanligini ko'rsatadi.<sup>1</sup> So'nggi yillarda BAA quyidagi natijalarga erishdi:

---

<sup>1</sup> <https://www.onearabia.me/>



- turistlar sonining muntazam o'sishi;
- turizm daromadlarining ortishi;
- mehmonxona sektorining kengayishi;
- xalqaro tadbirlar sonining ko'payishi.

Bu natijalar mamlakat turizm siyosati samarali ekanligini ko'rsatadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi - BAA turizm rivojlanish strategiyalarini o'rganish va istiqbolli yo'nalishlarini aniqlashdan iborat.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullar qo'llanildi:

Tizimli tahlil usuli orqali BAA turizm siyosati o'rganildi;

Statistik ma'lumotlarni taqqoslash usuli yordamida turizm ko'rsatkichlari tahlil qilindi;

Iqtisodiy tahlil orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni baholandi;

Ilmiy adabiyotlar va xalqaro tashkilotlar hisobotlari o'rganildi;

Iqtisodiy-matematik formulalar orqali Turizmning YaIMdagi ulushi va Turizm o'sish sur'atini aniqlash formulasi tahlil qilindi.

Ma'lumot manbalari sifatida : BAA iqtisodiy hisobotlari xalqaro turizm tashkilotlari ma'lumotlari, ilmiy maqolalar, turizm statistik ma'lumotlari tahlil qilindi hamda umumlashtirildi.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMALAR**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, BAAda turistik salohiyatdan foydalanish samaradorligi 2019-yildagi pandemiya davrdan so'ng jadal tiklanish va sifatli o'sish bosqichiga o'tgan. BAAning Barqaror rivojlanish maqsadlari 2050 yilgacha uglerod neytralligiga erishish, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, innovatsiyalarni qabul



qilish, qayta tiklanadigan energiya manbalariga (RES) o'tish va resurslardan barqaror foydalanishga qaratilgan. Asosiy strategiyalar orasida "Net Zero 2050", "Biz BAA 2031" va toza energiya va barqaror transportga milliardlab dollar sarmoya kiritish orqali biologik xilma-xillikni himoya qilishni kiritdi.<sup>2</sup> Hamda UAE Tourism Strategy 2031" doirasida quyidagi natijalarga erishish rejalashtirilgan:

1. Turizmning YaIMdagi ulushini 450 milliard dirhamga yetkazish.
2. Yiliga 40 million mehmonni jalb qilish.
3. Turizm sektoriga 100 milliard dirham miqdorida yangi investitsiyalar kiritish.<sup>3</sup>

### 1-jadval.

#### BAA da amirliklararo qiyosiy tahlil<sup>4</sup>

Amirliklar	Asosiy yo'nalish	Sayyohlar ulushi	O'sish dinamikasi
Dubay	Biznes va shopping	65%	Yuqori
Abu-Dabi	Madaniyat va san'at	20%	Barqaror
Ras al-Xayma	Ekologik turizm	8%	Tez o'suvchi
Sharja	Oilaviy turizm	7%	Mo'tadil

Manba: Statista, "Tourism industry in the UAE - statistics & facts", 2024 ma'lumoti asosida muallif tomonidan tuzildi

<sup>2</sup> <https://u.ae/>

<sup>3</sup> Ministry of Economy, UAE. (2022). The UAE Tourism Strategy 2031: Integrating the Seven Emirates.

<sup>4</sup> Statista, "Tourism industry in the UAE - statistics & facts", 2024 ma'lumoti asosida muallif tomonidan tuzildi



1-jadvalda BAA o'zining bir nechta amirliklariga kata e'tibor qaratib, turistlar oqimini ko'paytirishdagi say-harakatini namoyon etadi. Bu esa dinamikalar orqali tahlil qilinib boradi va kelajakka o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazishga yordam beradi.

### 2-jadval. BAAda turizmni rivojlantirishning asosiy segmentlari<sup>5</sup>

№	Turizm turlari	Tavsifi	Asosiy markazlar
1.	Madaniy turizm	Muzeylar, tarixiy meros obyektlari	Abu-Dabi, Sharja
2.	Biznes turizm (MICE)	Ko'rgazmalar va forumlar	Dubay, Abu-Dabi
3.	Ekologik turizm	Cho'l safari, tog' hududlari	Ras-al-Xayma
4.	Tibbiy turizm	Zamonaviy klinikalar	Dubay
5.	Sport turizm	Formula-1, golf	Yas Island

2-

jadvalda esa, BAAda turizmni rivojlantirishning asosiy segmentlari ko'rsatilgan bo'lib, aynan mana shu turizm turlari bugungi kunda BAA ni rivojlantirib borayotgani va xalqaro mehmonlar oqi ini kuchaytirayotgani belgisi hisoblanadi.

### 3-jadval. BAAGA xalqaro turistlar kelishi dinamikasi (2019-2025)<sup>6</sup>

T/r	Yil	Turistlar soni (mln kishi)	O'zgarish (%)	Turistik tushumlar (mlrd AED)
1	2019	21.0	+5.1%	38.4

<sup>5</sup> UAE tourism reports asosida muallif tomonidan tuzildi

<sup>6</sup> UAE Ministry of Economy. (2022). UAE Tourism Strategy 2031: Aiming for global leadership. Retrieved from [vazirlik rasmiy sayti] asosida muallif ishlanmasi



T/r	Yil	Turistlar soni (mln kishi)	O'zgarish (%)	Turistik tushumlar (mlrd AED)
2	2020	8.2	-61.0%_	14.1
3	2021	10.8	+31.7%	19.5
4	2022	19.1	+76.8%	32.2
5	2023	22.5	+17.8%	40.5
6	2024	25.2	+12.0%	46.8
7	2025	28.1	+11.5%	53.2

2025-yil yakunlariga ko'ra xalqaro turistlar oqimining 28.1 mln nafarga yetishi hamda turistik tushumlarning 53.2 mlrd miqdorida qayd etilishi sohaning pandemiyadan oldingi (2019-yil) ko'rsatkichlardan to'liq o'zib ketganligini tasdiqlaydi.<sup>7</sup>

## MUHOKAMA VA TAHLIL

BAA turizm modelining muvaffaqiyati shundaki, u neft rentasidan olingan kapitalni yuqori texnologiyali xizmat ko'rsatish infratuzilmasiga aylantira oldi. Biz yuqorida keltirgan Turizm Multiplikatori (TM) effektini chuqurroq tahlil qilsak, mamlakatda soliq yukining pastligi ( $t \approx 5\%$ ) iste'mol xarajatlarining iqtisodiyotda aylanish tezligini oshiradi. Agar biz turizm sohasidagi umumiy daromadni ( $Y_t$ ) investitsiya ( $It$ ) bilan bog'lasak, quyidagi dinamikani ko'ramiz:

$$\Delta Y_t = 1/k \times \Delta It$$

<sup>7</sup> UAE Ministry of Economy



Bunda  $k$  – capital sig'imi koeffitsiyenti. BAA da bu koeffitsiyent raqamli texnologiyalar hisobiga pasayib bormoqda, ya'ni har bir kiritilgan dollar ko'proq foyda keltirmoqda.<sup>8</sup> Ushbu matematik yondashuv Smith (2023) tomonidan taklif etilgan iqtisodiy modelga asoslangan.

"Smart Tourism" va sun'iy intellekt integratsiyasi Muhokama qilinishi kerak bo'lgan asosiy nuqta — bu Dubay va Abu-Dabining "Aqlli shahar" (Smart City) konsepsiyasi. Sayyoh aeroportga qadam qo'yganidan boshlab, uning harakati Big Data orqali tahlil qilinadi. Bu nafaqat xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi, balki "Overtourism" (haddan tashqari sayyoh to'planishi) muammosini logistik modellashtirish orqali hal qiladi. BAA hukumati mobil ilovalar va aqlli transport orqali ushbu taqsimotni muvozanatlashtirib, ekotizimga tushadigan yuklamani kamaytirmoqda. Mintaqaviy raqobat va "Yagona viza" istiqbollari Saudiya Arabistonining "Vision 2030" dasturi doirasida turizm bozoriga kirib kelishi BAA uchun yangi chaqiriq (challenge) paydo qildi. Biroq, muhokamalar shuni ko'rsatadiki, bu "nol yig'indili o'yin" (zero-sum game) emas. Aksincha, Ko'rfaz mamlakatlari (GCC) uchun yagona viza tizimining joriy etilishi regionni Janubi-Sharqiy Osiyo kabi yirik turistik xabga aylantiradi.

## XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Birlashgan Arab Amirliklarining turizm strategiyasi shunchaki reklama emas, balki chuqur hisoblangan iqtisodiy modeldir. Xulosaning asosiy punktlari:

1. Diversifikatsiya muvaffaqiyati: BAA neft iqtisodiyoti modelidan voz kechib, turizmni YaIMning asosiy ustuniga aylantira oldi.

---

<sup>8</sup> Smith, R., & Johnson, L. (2023). The Multiplier Effect of Tourism in Tax-Free Economies: A Case of United Arab Emirates. *International Journal of Tourism Research*, 25(4), 512-528.



2. Chidamlilik (Resilience): 2020-2025 yillar dinamikasi shuni isbotladiki, BAA inqirozlarga (pandemiya kabi) qarshi eng moslashuvchan turizm tizimiga ega. Bu moslashuvchanlik raqamli boshqaruv va davlat-xususiy sheriklik modelining samarasidir.

3. Kelajak prognozi: 2031-yilga borib, BAA dunyoning eng ko'p tashrif buyuriladigan top-5 davlatidan biriga aylanishi uchun barcha imkoniyatlarga ega. Buning uchun "Yagona viza" va "Ekologik turizm" drayver bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, BAA tajribasi rivojlanayotgan davlatlar, jumladan O'zbekiston uchun ham barqaror xizmatlar iqtisodiyotini qurishda eng maqbul "keys" (case study) bo'lib xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dubai Department of Economy and Tourism (DET). (2024). Annual Visitor Report 2023: Dubai's Path to Global Leadership. Dubai, UAE: Government Press.
2. Ministry of Economy, UAE. (2022). The UAE Tourism Strategy 2031: Integrating the Seven Emirates.
3. Smith, R., & Johnson, L. (2023). The Multiplier Effect of Tourism in Tax-Free Economies: A Case of United Arab Emirates. *International Journal of Tourism Research*, 25(4), 512-528.
4. Statista. (2024). International tourist arrivals in the United Arab Emirates from 2019 to 2025 (Forecasts). Retrieved from [Statista.com](https://www.statista.com).
5. United Nations World Tourism Organization (UNWTO). (2023). World Tourism Barometer: Middle East Recovery Insights.
6. World Travel & Tourism Council (WTTC). (2024). Economic Impact Report: United Arab Emirates 2024.